

qonunchilik doirasida amalga oshirilishi va ijtimoiy himoya kafolatlarini o'z ichiga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "2022 — 2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 04.04.2022 yildagi 155-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5939940>
2. Шевченко Л.И. Рынок труда: анализ экономических концепций // Экономика Украины. — 2006 — № 4. — С. 18.
3. Петрова И. Л. Сегментация рынка труда: теория и практика регулирования. — К.: Аванпост, 2007. — 240 с.
4. Купалова Г.И. Социально-экономическая сущность формы и функции рынка рабочей силы // Занятость и рынок труда. — 2006. — № 2. — С. 12-19.
5. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida" qonuni, 20.10.2020 yildagi O'RQ-642-son. <https://lex.uz/docs/5055690>

TOSHKENT VILOYATI AHOLISI BANDLIGINING OILAVIY TARKIBGA TA'SIRI

Sabirova Muazzam

*Alfraganus Universiteti Turizm fakulteti
katta o'qituvchisi*

Jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning ildizini aksariyat hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitdan izlash nechog'lik o'zini oqlagani kabi, kuchli, barqaror va farovon davlat negizini ham, avvalo, mustahkam oilalar tashkil etishi bugun vaqt va zamon chig'irig'idan o'tgan ulkan haqiqatdir. Sharqda, musulmon mamlakatlarida azaldan oila muqaddas dargoh sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, yurtda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidir. Shuning uchun oilaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyatiga qadim zamonlardan beri davlatlar qonunchiligida alohida e'tibor beriladi. Xususan, Bosh qomusimizda ham "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" [9.], deb belgilab qo'yilgan.

Oilani tadqiq etishda va o'rganishda avvalambor oilaning turi, o'lchami, shakli va tuzilishini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Oilaning tarkibi — oiladagi kishilar soniga ko'ra taqsimlanishi, uning shakli, tuzilishi va turlariga ko'ra bo'linishidir [37.]. Oilani o'rganishda uning vazifalaridan eng muhimi bu aholining takror barpo bo'lishi ya'ni tug'ilish jarayonlarining rivojlanishidir.


Oilaning asosiy vazifasi "1990-yillargacha ishlab chiqaruvchilik vazifasi cheklangan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdan iborat bo'lgan" [1;B-225.]. Bu davrda bolalarni dunyoga keltirish, uning tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib ayol kishi shu ish bilan band bo'lgan. Bozor munosabatlariga o'tish davrida esa oilaning mamlakat iqtisodiyoti va

rivojlanishidagi ahamiyati ortib bordi. Binobarin, oilada qanchalik bolalar sonini ko'p bo'lishi kelajakda ishchi kuchini ta'minlashga o'z hissasini qo'shishi, oilada nosog'lom farzandlarning tug'ilishi esa bevosita davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishini talab etiladi.

Oila o'lchami, asosan oilada istiqomat qiluvchi kishilar soniga ko'ra tahlil qilinadi. Osiyo va Yevropa davlatlarida oilaning turlari va shakllanishi ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, hozirgi vaqtda demografik o'tish bosqichining to'rtinchi davriga kiruvchi davlatlardan biri Germaniyada asosan 1 va 2 nafar farzandli oilalar ko'p. 2015-yil ma'lumotlariga ko'ra, bu davlatda 5,5 million oilalardagi ota-onalar nikohdan o'tishgan, 843 ming nafari esa nikohlanmagan. Aksariyat oilalar noto'liq oilalar bo'lib, asosan onasi yoki otasi bilan yashashgan. Noto'liq oilalarda 11% bolalar faqatgina otasi bilan istiqomat qiladi [2].

O'zbekistonda esa 2015-yildan umumiy oilalar soni 7 646 355 tani tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 9 729 961 taga ko'paygan. O'rganilyotgan Toshkent iqtisodiy rayoniga kiruvchi Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respublikadagi oilalarning 20 foizini yashaydi.

Aholining nafaqat tabiiy harakati, balki mexanik harakati ham oilaviy tarkibiga oilalar soni, turi, o'lchami va dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Toshkent viloyatida ham, migratsiya jarayonlarining dinamikasi o'ziga xos bo'lib, ya'ni boshqa iqtisodiy rayonlarga nisbatan migratsiya ko'rsatkichlari pastdir. Aksincha, tadqiqot obyektida tashqi migratsiyaga nisbatan ichki migratsiya faol. Migratsiya faol bo'lgan hududlarga eng avvalo, shu hududdagi aholining bandlik darajasi va milliy tarkibi ham ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Toshkent viloyati aholisida xorijga ko'chib ketganlar miqdori (2022-yil, foizda)

Manba: O'zR Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Bunga ko'ra, Toshkent viloyati aholisida xorijga ko'chib ketganlar sonida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlarga Chirchiq shahri va Bo'stonliq tumani kirgan. Chirchiq shahri sanoatlashgan hudud bo'lishiga qaramasdan, aholining milliy tarkibida boshqa millat vakillarining ulushi yuqoriligi bevosita migratsiya jarayonlarida ham faollikni oshirgan.

Aynan mana shu jarayonda aholining ko'plab ishtiroki ham ajralish jarayonining oshishiga va tabiiy o'sishning pasayishiga olib kelayotganligini ta'kidlab o'tish joiz. Viloyatning Bo'stonliq tumanida aniqrog'i, G'azalkent shahrida ishlab chiqarish korxonalarining butkul to'xtatilganligi tufayli aholining ishsizlik darajasi 10,6% bo'lishiga olib kelganligi bilan bog'liqdir.

1-jadval

Toshkent viloyati hududining mutlaq balandliklar bo'yicha ishsizlik darajasi (2022 yil)

Mutlaq balandliklar	Shahar va tumanlar nomi	Shahar va tumanlar soni	Zichligi (1 m ²)	Ishsizlik darajasi
0 – 400 metrgacha (tekislik)	Nurafshon sh, Bekobod sh, Yangiyo'l shaharlari va Oqqo'rg'on, Bekobod, Bo'ka, Quyi Chirchiq, Yangiyo'l, Chinoz, O'rta Chirchiq tumanlari	$\frac{10}{41}$	137,4	8,7
400-500 m dan 1000-1100 metrgacha (Tog'oldi)	Olmalik sh, Angren sh, Chirchiq sh, Ohangaron shaharlari va Ohangaron, Zangiota, Qibray, Piskent (Suyurtepa, Sharqiya, Yardam, Yangiobod qishloqlari), Yuqorichirchiq (Boyovut, Soybuloq, Qursoy, Kangli, Karatuxum, Xalqberdi, Yettiboy qishloqlari), Parkent (Atchi, Navdak, Sanganak, Kumushkon, Qashqi qishloqlari), Bo'stonliq (Xojikent, Budaksuv, Qoranko'l, Chimboyliq, Soyliq, Parchayuz, Galvasoy, To'qqizko'l, Qoramazor, Xondoyliq, G'azalkent, Barraj, Dumaloq, Chorvoq, Kaltasoy, Achchisoy, Jalaturmush qishloqlari) Toshkent tumanlari	$\frac{12}{50}$	141	8,7
1000-1100 metrdan yuqori (Tog'li)	Parkent, Ohangaron (Avjasoy, Korotoka, Andarjon, Guldurama, Nishbosh, Aynalma, Uzunbuloq, Turkqishloq, Chinor, Serqaqirildi, Beshbuloq, Tangatopdi, Soyyoqa, Kuksaroy, Mashinatut, Ahmadobod, Ertosh, Beshko'l, Soyoqzi, Katagon, Yangiobod, Qoraqiya, Qorabosh qishloqlari) va Bo'stonliq tumanlari	$\frac{3}{9}$	57,4	8,5
Jami		$\frac{25}{100}$	107,3	

Manba: Jadval <https://earth.google.com/web>, <https://ru-ru.topographic-map.com> saytlari va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

(Izoh: suratda-mutlaq miqdor ko'rsatkichlari, maxrajda-foizda berilgan).

Viloyatning Olmaliq, Angren, Quyi Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Qibray, Chinoz tumanlarida esa ko'chib ketgan aholi miqdori ham tobora oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, migratsiya jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan eng muhimi bu ishsizlikdir. Toshkent viloyati aholisining tarixdan Chirchiq deltalarining atroflariga borib joylashuvi, unumdor yerlaridan foydalanib qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi bizga ma'lum. Ammo, globallashuv va ekologik muvozanatning buzilishi asta-sekinlik bilan yerlar unumdorligini pasayishiga olib kelmoqda. Aholi o'sishda davom etmoqda, o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'lsada, ammo yoshlar salmog'i balanddir. Shu boisdan ham, viloyatning ayrim, Oqqo'rg'on, Bo'stonliq, Quyi Chirchiq va Piskent tumanlarida ishsizlik darajasi 10 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlar 2010-yil ko'rsatkichlaridan teng barobar oshganligini ko'rsatmoqda.

Toshkent viloyatida Toshkent shahriga nisbatan ishsizlik darajasi yuqoriligi bilan ko'zga tashlanadi. Ishsizlik darajasining yuqoriligi, buning natijasida iqtisodiy tomondan ta'minlanganlik darajasining past bo'lishi, o'z-o'zidan oiladagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Oilalarda nikoh yoshi ko'tarilishi, buning natijasida turmush quradiganlar sonining kamayishi va o'z navbatida ajrimlar sonining ortishiga ham ishsizlik omili juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aynan shuning uchun ham, viloyatda ko'p ishchi kuchi talab etiladigan ishlab chiqarish turlarini ko'paytirish, tabiatidan xolisona foydalanish hisobiga turizm turlarini kengaytirish, uy hostellarini ko'paytirish kabi ishlarni amalga oshirish zarurdir.

Toshkent viloyatining o'ziga xos geografik joylashuviga ko'ra, tekislikdan tog'li hududga ko'tarilgani sayin aholining zichligi kamayishi bilan ishsizlik darajasi ham pasayib borganini ko'rish mumkin. Tog'li hududlardan tekislik va tog'oldi hududlarda tobora aholining zichligi ham oshib borishi va buning natijasida ishsizlik

darajasining ham ortishini ko'rish mumkin. Tog'oldi hududlarga viloyatning 11 ta shahar va tumanlari kiradi va 50% tashkil etib, aholi zichligi 141 kishiga va ishsizlik darajasi 8,7 % tashkil etgan.

Tog'oldi hududiga kiruvchi shahar va tumanlar soni ko'pligi, aholi zichligi bevosita ishsizlik darajasini ham oshirgan. Bu hududga kiruvchi shaharlarda sanoat shaharlari mavjud. Ammo boshqa tumanlarida aholining bandlik darajasi past.

Ishsizlik darajasining yuqoriligi bevosita aholining kambag'allik darajasini ham oshirgan. Aholining ishsizlik darajasining oldini olish va aholining bandligini oshirish yuzasidan juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, bundan tashqari hududlarda ishchi kuchi ko'p talab etadigan yengil sanoatni yo'lga qo'yish ham lozim. Tog'li hududga kiruvchi Parket va Bo'stonliq tumanlarida agroturizmni yo'lga qo'yish, meva va sabzavot ekinzorlarini turistlarga ko'rsatish kabi ishlarni amalga oshirish zarur.

Toshkent viloyati aholisi oilaviy tarkibi hududiy-demografik rivojlanishidagi o'zgarishlarga bevosita aholining joylashgan geografik o'rnining ta'siri har bir demografik jarayonlarda o'z aksini topdi. Toshkent viloyatining bandlik mintaqalari bo'ylab aholining joylashuvdagi ijobiy va salbiy tomonlari aniqlandi. Aholi zichligi, miliy-etnik tarkibining xilma-xilligi Toshkent viloyati oilalarining tarkibini o'zgarishiga

o'z ta'sirini ko'rsatishi bu o'z navbatida demografik jarayonlarning dinamikasiga ta'sir etishi atroflicha ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X, Abduramanov X.X. Demografiya (o'quv qo'llanma). – T: Noshir, 2011.
2. <https://www.deutschland.de/ru>
3. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Darslik- T.: «NOSHIR» 2019. 183 b.
4. Tojiyeva Z.N. Aholishunoslik siyosati. O'quv qo'llanma. - T.: «Innovatsiya-Ziyo» 2022. 176 b.
5. Tojiyeva Z.N., Do'smonov F.A., Demografiya. O'quv qo'llanma. Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi.-T.: 2020.-424 b.
6. Тожиева З.Н. Жиззах вилояти аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ижтимоий-иқтисодий муаммолар. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 1998 й.-34-б.
7. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.) (монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. - 156 б.
8. Тожиева З.Н., Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. География фанлари доктори (Doktor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 2017 й. 267-б.
9. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2023
10. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. – Т.: «Адолат», 2014.
11. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси.- Т.: «Адолат», 2014.

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
AHOLI BANDLIGIDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI**

Xoshbakov Baxodir

*Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish
agentligining Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasi*

O'zbekistonda xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, biznesni yuritish va tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, soliq yukining yuqoriligi, soliq ma'muriyatchiligining shaffof emasligi, soliq solish maqsadida kichik tadbirkorlik sub'ektlarini aniqlash mezonlari optimal belgilanmaganligi, xufiyona iqtisodiyotning mavjudligi, soliq tushumlarini yashirish, soliq bazasi va ob'ektlari kamaytirib ko'rsatilishi kabi holatlar mavjud bo'lib, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish va amaliy yechimlarini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, 2026 yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini